

“O‘ZKIMYOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHI
12-SON BAYONNOMASI

Yig‘ilish o‘tkazilgan joy:	Toshkent shahri Navoiy ko‘chasi, 38-uy.
Yig‘ilish o‘tkazilgan sana:	20.03.2025-yil.
Aksiyadorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish boshlangan vaqt:	14:00
Aksiyadorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tugagan vaqt:	15:00
Yig‘ilish boshlangan vaqt:	15:00

Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo‘lgan ovozlarining umumiy soni – 2 927 710 704 (ikki milliard to‘qqiz yuz yigirma yetti million yetti yuz o‘n ming yetti yuz to‘rt) dona.

Yig‘ilish o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reyestri shakllantirilgan sana – 2025-yil 27-fevral.

Yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega jamiyat aksiyadorlarining reyestri shakllantirilgan sana – 2025-yil 14-mart.

Jamiyat kuzatuv kengashining raisi J. Mirzamahmudov yig‘ilish rayosatini saylash bo‘yicha taklif berdi.

Aksiyadorlar tomonidan ochiq ovoz berish yo‘li bilan bir ovozdan yig‘ilish rayosatiga quyidagilar saylandi:

J. Abdushukurov – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Davlat aktivlarini xususiylashtirish va transformatsiya qilish departamenti direktori;

E. Mavlyudov – O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining Investitsiya loyihalarini monitoring qilish boshqarmasi Yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati loyihalarini monitoring qilish bo‘limi boshlig‘i;

O. Temirov – “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi.

Taklif etilganlar:

Y. Korjikov – “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining ishlab chiqarish, mahalliy lashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va improtni maqbullashtirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari;

J. Mustafayev – “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining moliya-iqtisodiyot va transformatsiya masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari;

A. Kurbanov – “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining investitsiya faoliyati bo‘yicha o‘rinbosari;

R. Abduraxmanova – “O‘zkimyosanoat” AJ iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti boshlig‘i;

J. Raximov – “O‘zkimyosanoat” AJ korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig‘i;

T. Ibadullayev – “O‘zkimyosanoat” AJ yuridik boshqarmasi boshlig‘i.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining (keyingi o‘rinlarda – Qonun) 58-moddasiga asosan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko‘ra bo‘lmagan taqdirda esa, jamiyat kuzatuv kengashining a‘zolaridan biri olib boradi.

Aksiyadorlar tomonidan ochiq ovoz berish yo'li bilan bir ovozdan yig'ilish raisi etib Jamiyat kuzatuv kengashi raisi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vaziri J. Mirzamahmudov va yig'ilish kotibi etib jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi bosh mutaxassisi S. Abdullayev saylandi.

Yig'ilish raisi J. Mirzamahmudov yig'ilishni ochiq deb e'lon qildi va aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun yig'ilish kvorumi mavjudligi to'g'risida axborot berish uchun sanoq komissiyasi a'zosi B. Sultanovga so'z berdi.

Sanoq komissiyasi a'zosi B. Sultanov quyidagilarni ma'lum qildi:

“Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi” AJ tomonidan 2025-yil 14-mart holatiga shakllantirilgan “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining reyestriga muvofiq jami ovoz beruvchi aksiyalar soni 2 927 710 704 (ikki milliard to'qqiz yuz yigirma yetti million yetti yuz o'n ming yetti yuz to'rt) donani tashkil qiladi.

Aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish vaqti tugatilganda, umumiy miqdori 2 927 710 704 (ikki milliard to'qqiz yuz yigirma yetti million yetti yuz o'n ming yetti yuz to'rt) dona joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalar egalarining vakillari ro'yxatdan o'tdi, bular:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (keyingi o'rinlarda – IMV) nomidan Abdushukurov Jamshid Abdigalipovich - Davlat aktivlarini xususiylashtirish va transformatsiya qilish departamenti direktori, 1 256 417 557 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiya, ovoz beruvchi aksiyalarning 42,91 foizini tashkil etadi, IMVning 2025-yil 7-fevraldagi 01/29-3-2728-son ishonchnomasiga asosan jamiyatning ma'muriy binosiga tashrif buyurgan holda “Offline” ishtirok etdi.

2. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – TTJ) nomidan Mavlyudov Eldar Xayratdinovich - Investitsiya loyihalarini monitoring qilish boshqarmasi Yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati loyihalarini monitoring qilish bo'limi boshlig'i, 1 671 293 147 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiya, ovoz beruvchi aksiyalarning 57,09 foizini tashkil etadi, TTJning 2025-yil 20-martdagi ShV-04/08-285-son ishonchnomasiga asosan jamiyatning ma'muriy binosiga tashrif buyurgan holda “Offline” ishtirok etdi.

Bu esa umumiy ovoz beruvchi aksiyalarning 100,0 foizini tashkil etadi va yig'ilish vakolatli (kvorumga ega) hisoblanadi.

Yig'ilish raisi J. Mirzamahmudov yig'ilish ishtirokchilariga kun tartibini o'qib eshittirdi.

KUN TARTIBI:

1. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

2. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.

3. “O'zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashi a'zosining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish va yangi kuzatuv kengashi a'zosini saylash.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan yig'ilish raisi J. Mirzamahmudov so'zga chiqib, Qonunning 66-moddasiga asosan ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek, ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanishini ta'kidlab o'tdi.

Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining 2025-yil 27-fevraldagi 6-son bayonnomasi bilan sanoq komissiyasi quyidagi tartibda tuzilganligini ma'lum qildi.

B. Sultanov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari;

M. Xasanova – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi bosh mutaxassisi;

D. Ziyodov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.

Muhokamadan so'ng quyidagi taklif **ovozga qo'yildi:**

1. Sanoq komissiyasi a'zolari sonini 3 (uch) kishidan iborat quyidagi tarkibda tasdiqlash:

B. Sultanov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari;

M. Xasanova – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi bosh mutaxassisi;

D. Ziyodov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.

Shundan so'ng yig'ilish raisi J. Mirzamahmudov aksiyadorlardan sanoq komissiyasi soni hamda shaxsiy tarkibini tasdiqlash masalasi bo'yicha o'z munosabatlarini bildirish uchun byulleten orqali ovoz berishlarini so'radi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan yig'ilish raisi J. Mirzamahmudov so'zga chiqib, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini quyidagi tartibda tasdiqlash haqida fikr bildirdi:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlari uchun – 10 daqiqagacha;

- qo'shimcha nutq va munozaralar uchun – 5 daqiqagacha;

- ovozlarni hisoblash uchun tanaffus – 5 daqiqa.

Muhokamadan so'ng quyidagi taklif **ovozga qo'yildi:**

2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi reglamentini quyidagi tartibda tasdiqlash:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlari uchun – 10 daqiqagacha;

- qo'shimcha nutq va munozaralar uchun – 5 daqiqagacha;

- ovozlarni hisoblash uchun tanaffus – 5 daqiqa.

Shundan so'ng yig'ilish raisi J. Mirzamahmudov aksiyadorlardan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash masalasi bo'yicha o'z munosabatlarini bildirish uchun byulleten orqali ovoz berishlarini so'radi.

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan yig'ilish raisi J. Mirzamahmudov so'zga chiqib, so'z navbatini aksiyador vakili J. Abdushukurovga berdi.

J. Abdushukurov O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 27-fevraldagi 07/29-40/340-son xatida Qonunning 65-moddasiga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligi "O'zkimyosanoat" AJ 1 256 417 557 dona oddiy aksiyasiga egalik qilishini inobatga olib hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-fevraldagi 03/1-1911-son topshiriq xatiga ko'ra, jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish va kun tartibiga jamiyat Kuzatuv kengashining yangilangan a'zolarini saylash masalasini kiritish so'ralganligini ma'lum qildi (*xat nusxasi ilova qilinadi*).

Shuningdek, makzur xatda Jamiyat kuzatuv kengashi raisi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vaziri J. Mirzamahmudov o'rniga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining o'rinbosari X. Mustafayev nomzodi kuzatuv kengashi tarkibi taklif etilganligini ta'kidlab o'tdi.

Muhokamadan so'ng quyidagi takliflar **ovozga qo'yildi:**

3.1. "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi a'zosi Mirzamahmudov Jo'rabek Tursunpulatovichning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin.

3.2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining o'rinbosari Mustafayev Xurshed Baxtiyorovich "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi tarkibiga saylansin.

Shundan so'ng yig'ilish raisi J. Mirzamahmudov aksiyadorlardan kun tartibidagi masala yuzasidan ovozga qo'yilgan takliflarni inobatga olib, o'z munosabatlarini bildirish uchun byulleten orqali ovoz berishlarini so'radi.

Ovoz berish natijalariga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi **qaror qildi:**

1. Sanoq komissiyasi a'zolari soni 3 (uch) kishidan iborat quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

B. Sultanov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari;

M. Xasanova – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi bosh mutaxassisi;

D. Ziyodov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.

2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi reglamenti quyidagi tartibda tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlari uchun – 10 daqiqagacha;

- qo'shimcha nutq va munozaralar uchun – 5 daqiqagacha;

- ovozlarni hisoblash uchun tanaffus – 5 daqiqa.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.

3.1. "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi a'zosi Mirzamahmudov Jo'rabek Tursunpulatovichning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin.

3.2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining o'rinbosari Mustafayev Xurshed Baxtiyorovich "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi tarkibiga saylansin.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.

Shu bilan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'z ishini yakunladi va yig'ilish yopiq deb e'lon qilindi.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi bayonnomasi ikki nusxada tuzildi va 2025-yil 24-mart kuni imzolandi.

Yig'ilish raisi

J. Mirzamahmudov

Yig'ilish kotibi

S. Abdullayev